



AMIR TEMURNING MOVAROUNNAHR UCHUN KURASHI. LOY JANGI

Ashuraliyeva Shohista Shavkat qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i03-p1-04>

ARTICLE INFO

Received: 26th February 2023

Accepted: 02nd March 2023

Online: 03rd March 2023

KEY WORDS

Hiro, Sheroz, Tabriz, Movarounnahr, Tug'luq-Temur, «Janggi loy», Amir Tarag'ay, Qundo'z shahri, O'ljoy Turkon Og'a, Ilyosxo'ja, Samarqand.

ABSTRACT

Ushbu maqola dunyo tarixida muhim o'rin tutgan davlat arbobi Amir Temurning Amir Temur hayoti va faoliyati, hokimyat tepasiga kelishidan boshlab, davlat boshqaruvidagi tartib-qoidalari, sarkardalik qobiliyati bilan yangi hududlar evaziga hududlarini kengaytirganini o'rganishimiz mumkin.

Temur haqidagi ilk ma'lumotlar 1361-yildan boshlab manbalarda paydo bo'lgan. Tamerlanning siyosiy faoliyatining boshlanishi Chingizxonning tarjimai holiga o'xshaydi: ular shaxsan o'zlari yollagan tarafdorlar otryadlarining rahbarlari bo'lib, keyinchalik o'z hokimiyatining asosiy tayanchi bo'lib qolishgan. Temur ham Chingizxon singari harbiy kuchlarni tashkil etishning barcha tafsilotlariga shaxsan kirib bordi, dushmanlar qo'shinlari va ularning yerlari holati to'g'risida batafsil ma'lumotlarga ega bo'ldi, o'z qo'shinlari orasida so'zsiz hokimiyatga ega bo'ldi va o'z safdoshlariga to'liq tayanishi mumkin edi. Fuqarolik boshqaruvi boshlig'iga tayinlangan shaxslarni tanlash unchalik muvaffaqiyatli bo'lmadi (Samarqand, Hiro, Sheroz, Tabrizda oliy martabali shaxslarni tovlamachilik uchun jazolashning ko'plab holatlari).

XIV asrning 50-60-yillarida Movarounnahrda feodal tarqoqligi g'oyatda kuchayib, sinfiy kurash yanada keskinlashadi. Mamlakatdagi har bir viloyat alohida hukmdorlikka ajralib, ular o'rtasida nizo kuchayib ketadi va qonli urushlarga aylanadi. Bu davrda mamlakatda yagona uyushgan davlatning yuqligi, uning siyosiy jihatdan maydalanib ketganini o'rta asr muarrixlaridan Riyosuddin Xondamir o'zining «Xabib us-siyar» nomli asarida quyidagicha tasvirlaydi: «Amirzoda Abdullo binni amir qozag'on (1346—1358) vafotidan so'ng Turkiston axvolidan haraju maraj (boshboshdoqlik) yo'l topib, har shaharda mustaqil shoxlikka intilishlar maydonga keladi. Har qasabada bir uyatsiz davlat iqbol xavosi bilan qo'zg'olishga oyoq bosdi. Amir Bayon Sulduz Samarqandda ichkilik, ayshu-Ishratga berildi. Amir Xoji Barlos Kesh shahrida Hukumat bayrog'ini ko'tardi. Amir Boyazid Jaloir Xo'jandda davlat masnadi (taxti) ga ultirdi. Uljoytu Sulduz Balxda mamlakat hukmronligining visoliga kungul bog'ladi. Muhammad Xoja Yazdiy Shiburg'onda o'zini hoqimi mutlaq xayol qildi. Badaxshon shoxi, u Kuxistonda istiqloq kamarini beliga bog'lab, boshqalarga itoat qilishdan bosh tortdi. Amir



Xusayn binni Amir Milal binni Amir qozag'on va Amir Hizr Yasovuriy Hisori Shodmon chegarasida askar to'plab har lahzada viloyatlarga Chopqun yasab harob qilar edi".

Nizomiddin Shomiyning so'ziga qaraganda, mamlakatda hoqimlar o'rtasida doimo nizolar va g'alayonlar bo'lib turar, davlat ishlari esa butunlay izdan chiqqan edi. Siyosiy parokandalik, o'zaro urush va janjallar iqtisodiy tanglikka sabab bo'lib, mamlakat aholisini, ayniqsa dehqonlar xo'jaligini xonavayron qilgan edi. Buning ustiga Sharqiy Turkiston va Yettisuvda tashkil topgan Sulduz amirlari Movarounnahrni bosib olishga harakat qilardilar. Bir necha bor Movarounnahr ustiga yurish qilib, uni talab qaytadilar. Mo'g'uliston amirlarining vayronagarchilik yurishlariga qarshi kurash boshlanib ketadi. Mo'g'ullar istibdodi va zulmga qarshi xalq harakati boshlanadi.

Mana shunday ichki o'zaro urushlar qizigan, mo'g'ullar zulmiga qarshi mehnatkash xalq harakatlari boshlangan bir davrda qisqa vaqt ichida jahon imperiyasini vujudga keltirgan soxibqiron Temur siyosat maydoniga dastlabki qadamlarni quymoqda edi.

1347-yilda Chag'atoy ulusi ikki alohida davlatga: Moverannahr va Mo'g'uliston (yoki Mo'g'uliston)ga bo'linib ketdi. 1360-yilda Movarounnahr Tug'luq Temur tomonidan bosib olindi. 1362-yilda Mo'g'ulistondagi bir guruh amirlarning qo'zg'oloni natijasida Tug'luq-Temur shoshib, hokimiyatni o'g'li Ilyosxo'jaga o'tkazib, Moveronnahrni tark etadi. Temur Kesh viloyatining hukmdori va Mug'ul shahzodasining yordamchilaridan biri etib tasdiqlandi. Xon Sirdaryodan o'tishi bilanoq, Ilyosxo'ja amir Bekchik va boshqa yaqin amirlar bilan birgalikda Temurni davlat ishlaridan chetlatish, iloji bo'lsa, uni jismonan yo'q qilish niyatida til biriktiradi. Intrigalar tobora kuchayib, xavfli tus oldi. Temur mo'g'ullardan ajralib, ularning dushmani - amir Qozaganning nabirasi amir Husayn tomoniga o'tishi kerak edi. Ular bir qancha vaqt kichik otryad bilan avantyuristlar hayotini o'tkazdilar va Xorazm tomon yo'l oldilar, u yerda Xiva yaqinidagi jangda o'sha yerlar hukmdori Tavakqal'a-Qo'ng'iro't tomonidan mag'lubiyatga uchradilar, jangchilar va xizmatkorlarining qoldiqlari bilan chekinishga majbur bo'ldilar. sahroga chuqur. Keyinchalik Maxonga bo'ysunuvchi hududdagi Mahmudiy qishlog'iga borib, Alibek Joniqurbon xalqiga asir tushib, 62 kun asirlikda bo'lgan. Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Alibek Temur va Husaynni Eron savdogarlariga sotish niyatida bo'lgan, ammo o'sha kunlarda Maxondan birorta ham karvon o'tmagan. Mahbuslarni Alibekning akasi amir Muhammad-bek qutqardi.

Temur 1336-yilda Kesh (Shahrisabz) shahri yaqinida joylashgan Xo'jailg'or qishlog'ida dunyoga keladi. Uning otasi Amir Tarag'ay (Turgay) va amakisi Amir Xo'ja barlos qabila biylari va yirik mulkdor amirlaridan edi. Temur yoshlik chog'laridanoq harbiy ishga nihoyatda qiziqardi. U tezda moxir suvoriy va qahramon jangchi sifatida butun Qashqadaryo vodiysida shuxrat qozonadi. Uning atrofida barlos qabilasidan chiqqan jangchi yoshlar to'plana boshlaydi. Temur qul ostidagi navkarlari bilan ayrim amirlarga xizmat qiladi, janglarda chiniqadi.

1360 va 1361- yillarda Mo'g'uliston xoni Tug'luq Temur Movarounnahrdagi og'ir siyosiy vaziyatdan foydalanib, uni buysundirishga harakat qiladi. U hech qanday qarshiliksiz Qashdaryovodiysiga bostirib kiradi. O'sha vaqtlarda Qashqadaryo viloyatining hoqimi Amir Xo'ji barlos dushmanga qarshi kurashish o'rniga, Xurosonga qochadi.

Temur amakisining viloyatini qo'ldan bermaslik maqsadida Tug'luq Temur xizmatiga o'tib, Kesh viloyatiga amir bo'lib tayinlanishga muvaffaq bo'ladi. Mo'g'uliston xoni ug'li



Ilyosxo'jani Movarounnaxrning hoqimi qilib yuboradi. Ammo Temur unga xizmat qilishni istamaydi. U Movarounnaxr amirlaridan Xusayn bilan ittifoq to'zadi. Temur Husaynning singlisi O'ljoy Turkon Og'aga uylangach, ularning ittifoqi qarindoshlik aloqalari tufayli yanada mustahkamlanadi. Temur avval boshboshdoq amirlarga qarshi ichki, so'ngra esa mo'g'ullarga qarshi kurash olib boradi. Seistondagi urushlarda qo'li va oyog'idan yarador bo'lib, bir umrga oqsoq bo'lib qoladi.

1363-yilda Amudaryoning chap soxilida Qundo'z shahri yonida mo'g'ullar bilan birinchi jang bo'lib, unda Temur g'alaba qozonadi. Ana shundan so'ng mo'g'ullarni to'xtovsiz ta'qib etish boshlanadi. To'g'ri, ular Movarounnaxrni osongina berib quyishni istamas edilar. Tug'luq Temur vafotidan keyin Movarounnaxrdan haydalgan Ilyosxo'ja 1365- yilda katta qo'shin bilan Sirdaryoga tomon yo'lga chiqadi. Husayn bilan Temur jangga tayyorlanadilar. Ular o'rtasidagi jang Chinoz bilan Toshkent oralig'ida bo'ladi. Tarixda u «Janggi loy» nomi bilan shuxrat topadi. Jangda Temur bilan Husayn kelishib harakat qilmaganliklari oqibatida ularning birlashgan qo'shini mag'lubiyatga uchraydi. Chunki jangda Temur qo'shini g'olibona harakat qilib, zafar topayotgan bir paytda Husayn o'z askarlari bilan jang maydonini tark etadi. Temur esa chekinishga majbur bo'ladi. Loy jangidagi mag'lubiyat dushmanga Movarounnaxrga, xususan uning markaziy shahari Samarqandga tomon yo'l ochib beradi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Amir Temurning davlat boshqaruv sohasida, hamda ichki va tashqi siyosatda amalga oshirgan islohotlari o'z davrida uning saltanatini yanada mustahkam bo'lishiga olib kelgan va hozirgi kunda kundan-kun gullab-yashnab borayotgan Mustaqil O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ham davlat boshqaruv sohasida mamlakatimizning ertangi kuniga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlab, buyuk davlat arbobi Amir Temur tajribasini chuqur o'rganib, amalda buyuk bobolarimiz tajribasidan unumli foydalanilayotganining isboti sifatida ko'rish mumkin.

References:

1. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. - Toshkent: Sharq, 2000.365 b.;
2. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar.-Toshkent: O'qituvchi, 1994. 432 b;
3. Абдурахмон Сирот. Темурнома. Куллиётифорсий. Тошкент, 1331/1913, 441 6;
4. Ahmedov. Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida. Toshkent. „O'qituvchi“.1996
5. Абдураимов М.А. Обзор литературм, посвященной Темуруи Темуридам, изданной вУзбекистанев 60-хгодах//История СССР. 1973.№5. С. 47—51;
6. Xolto'rayevich, M. A. (2022). The Last Period in the Resistance Movement in Surkhandarya and the Repression of the National Forces. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY*, 3(12), 17-20.
7. Менглибоев, А. (2021). Сурхон воҳасида миллий озодлик ҳаракати натижалари ва оқибатлари. *Academic research in educational sciences*, 2(4), 1655-1674.
8. Nazirov, B. (2022). Ўзбекистонда жисмоний маданият ва спорт тарихи (XX асп–XXI асп бошларида Сурхон воҳаси мисолида). *Scienceweb academic papers collection*.



9. Nazirov, B. (2020). Ўзбекистонда жисмоний маданият ва Спорт тарихини (XX аср–XXI аср бошларида Сурхон воҳаси мисолида) ўрганишнинг долзарблиги. *Scienceweb academic papers collection*.
10. Менглибоев, А. Х. (2021). Сурхондарё округида миллий кучларнинг қатағон қилиниши. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, 4(11).
11. Mengliboyev, A. X. R. (2020). Tarixiy shaxslarning milliy manfaatlar uchun kurashi tarixidan. *Утмишга назар*, 215-219.